

“LAYLI VA MAJNUN” DOSTONI. ASARDAGI ISHQ TAVSIFI.

Jurayeva Gulxumor
Filologiya fakulteti
O'zbek tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada “Layli va Majnun” dostoni yaratilishiga asos bo’lgan afsonalar, ishq tasviri, undagi obrazlar tasviri qisqacha bayon qilinadi.

Kalit so’zlar: Layli, Majnun, Alisher Navoiy, Xamsa, Qutayba, ishq

VII asr oxirlarida arab qabilalari o’rtasida otashin muhabbat haqidagi she’rlar tarqala boshladi. Ularda go’zal bir qizga oshiq bo’lib, mahbubasi visoliga yetisholmay, iztirob chekayotgan yigitning kuchli dard-u armonlari, sevgilisining husn-u jamoli ta’rifi, unga bo’lgan samimiyy muhabbati, ehtiroslari bir-biridan nafis baytlar bilan tasvirlangan edi. Afsonalarga ko’ra, bu oshiq yigit Bani Omir qabilasidan bo’lib, ismi Qays in Mulavvah yoki Qays in Muod, sevgilisining nomi esa Layli ekani, qizning otasi rozilik bermagani tufayli unga yetisholmay, es-hushidan ayrilishi, el orasida Majnun, ya’ni «telba», «devona» deb tanilgan edi. Keyinchalik xalq orasidagi afsonalar, she’rlar jamlanib kitoblar yozila boshladi. Yillar, asrlar o’tib mazkur asarlarning yaratilish tarixi haqida rivoyatlar ham paydo bo’lib, Layli va Majnun haqidagi afsonalar yaratila boshlandi. XI asrda yashagan ibn Qutaybaning «Kitob ush-she’r va shuar» asaridan ushbu afsona ham o’rin olgan edi.

Fojiali ishq qo’shigi bo’lgan bu asar keyinchalik Arabistondan boshqa mamlakatlar, Eron va Turon xalqlari o’rtasida ham mashhur bo’lib, bu o’lkalarning shoirlari diqqatini o’ziga jalb eta boshladi. 1188-yili ozarbayjonlik yetuk mutafakkir shoir Nizomiy Ganjaviyning “ Layli va Majnun” dostoni maydonga kelib, uning «Xamsa» asari tarkibida jahonga tarqaldi. Pokiza va otashin muhabbatni tarannum etgan ushbu doston ta’sirida boshqa xalqlarning ijodkorlari ham Nizomiy dostoniga naziralar yarata boshladilar. Hind-fors shoiri Xisrav Dehlaviyning 1298-1299-yillari bitilgan «Majnun va Layli» dostoni shunday asarlardan biri edi. Unda Majnunning go ‘zal Layliga bo’lgan sevgisi bilan bog’liq voqealar bayoni yangi tafsilotlar bilan to’ldirilgan, asosiy timsollar bir qator fazilatlar bilan boyitilgan edi.

XV asr oxirlarida turkiy xalqlar ham o’z tillarida yaratilgan «Layli va Majnun» asari bilan tanishish baxtiga tuyassar bo’ldilar. Bu asar ham 1484-yilda yozilgan bo’lib, u 36 bob, 3622 baytdan iborat. Bu doston sevgi haqidagi dostonlar orasida eng g’amgin va dardli asardir. Sharqda tarqalgan xamsachilik an’anasiga o’z hissasini qo’shib, beshta dostondan tashkil topgan asar bitgan mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy turkiy xalqlarni 1483-85-yillarda «Hayrat ul-abror», «Farhod va Shirin»,

«Sab'ai sayyor», «Saddi Iskandariy» dostonlari qatorida ana shu afsona bilan ham tanishtirishdek sharaflı vazifani ado etdi. Bu haqida shoir dostonning xulosa bobida shunday deb yozgan edi:

Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu fasonani hikoyat.
Kim shuhrati chun jahonga to'lg'ay,
Turk elig'a dog'i bahra bo'lg'ay.
Nechunki bukun jahonda atroli
Ko'btur xushtab-u sofi idroli.

Natijada, ushbu asar ham barcha turkiy xalqlar orasida e'tibor qozondi, bu tilda yana ko'plab shu mavzudagi dostonlarning yaratilishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Navoiy qalamiga mansub ushbu badiiy obida o'z mazmuni, timsollari jihatidan Nizomiy va Xisrav Dehlaviylarning dostonlariga yaqin bo'lsa ham, tasvir usuli, voqealar bayonining keng ko'lamliligi, Majnun, Layli, Navfal, ota-onalar, Zayd, cho'pon kabi timsollarning to'laqonliligi, xususan, bosh qahramonlar ruhiy olami, tabiat manzaralarining mukammal va ta'sirchan tasviri, rang-barang she'riy san'atlarga boyligi, tilining aniqligi va jozibadorligi, xilma-xil qofiyalarning mazmundorligi va badiiy nafosati shu mavzudagi boshga barcha asarlardan ajralib turadi.

Asarning qisqacha mazmuni shunday: Majnun arab amirlaridan birining tilab olgan o'g'li. Oti asli Qays. U chiroyli, esli-hushli bo'lib o'sadi. Lekin Qays tug'ilishidayoq ishq uchun tug'ilgan edi. Bu ishq maktabdayoq zohir bo'ladi, saboqdoshi Layliga bog'lanib qoladi va bu kundan-kun kuchayib boradi. Laylining otasi buni eshitib nomus qiladi, qizini unga bermaydi. Qaysning otasi o'g'lini Ka'ba ziyyaratiga olib boradi. Ollohdan ishqdan xalos etishini tilatmoqchi bo'ladi. Qays esa, «kam bo'lsa, ko'p qil» deb iltijo etadi. Ota umidlari uzilib, o'g'lini olib qaytadi. Qays Majnunga aylanib, sahrolarga bosh olib ketadi. Hayvonlar orasida panoh topadi. Tasodif bilan ushbu voqeanning ustidan chiqqan jo'mard Navfal unga yordam qilmoqchi bo'ladi, o'rta ga tushadi. Laylining otasi ko'nmagach, qizni Qaysga zo'rlik bilan olib bermoqni o'ylaydi. Layli boshiga o'lim xavfi tushadi. Majnun bundan tushi orqali ogoh bo'ladi. Urushni to'xtatadi. Navfal uni o'z qiziga uylab qo'yadi. Biroq Majnun o'sha to'y kechasiyoq Laylini qo'msab, sahroga chiqib ketadi. O'sha kuni Ibn Salomga nikoh qilingan Layli bilan sahroda uchrashadi. Keyin yana ayriliq... Bu vaqtida Majnunning ota-onasi vafot etadi. Dardi ustiga dard qo'shilgan Majnun qabristondan ketmay, "oh" chekib qabr ichida yotadi. Layli ham bu voqealarni eshitib, holi yomon bo'ladi. Onasidan rozi-rizolik so'rab, jon taslim qiladi. Majnun Laylini ko'rib, hayotdan ko'z yumadi. Xullas, asar har ikkovilarining o'llimi bilan yakun topadi. Asarning so'ngida «Ishq ta'rifida» degan maxsus bob bor. Shoir unda Layli va Majnun taqdirida o'rab bergen mazmunni sharhlaydi. Ishqni misni oltinga aylantiruvchi kimyoga va jahonni yoritgувчи oynaga o'xshatadi. Shunga ko'ra, bu ishq tasavvufiy mazmundagi ishq edi.

Asarning asosiy qahramonlari quyidagilar: Layli, Qays (Majnun), Zayd (Layli va Majnun orasida vositachilik qilgan), Navfal, Ibn Salom, cho'pon va boshqalar.

Navoiy asarda Majnun va Laylini ishq uchun tug'ilgan qilib tasvirlaydi. Ular bir-birlarini bir ko'rishdayoq oshiq bo'lishadi va shu ishq bilan jon beradilar. Asarning nasriy bayonida Majnun Laylini ko'rgandagi holati quyidagicha yoziladi: "Maktabga kirib kelgan go'zal Laylini hurmat bilan kutib olgan do'stlari nihoyatda shodlanishdi. Lekin bu hayotbaxsh bahor bir niholni xazon qildi. Yo'q, yo'q, u niholga boshdan oyog o't tutashdi-yu, u o'tga, alangaga aylandi. Ya'ni qizning husni jamolini korgan Qaysning chehrasi kahrabodek sarg'ayib jismi zaiflashdi-yu, hushidan, ketish, yiqilish darajasiga yetdi. U yerga qulab tushmaslik uchun o'zini zo'rg'a tutib turardi. Sohibjamol go'zal giz ham bu mahzun yigitni ko'rgach, uning kim ekanligini fahmladi-yu, joniga ishq o'ti tushib, nima qilishini bilmay qoldi, so'ng o'zini qo'lga oldi-da, ikkovlarining sirlari oshkor bolmasligi uchun: "Yuringlar, bog'ga boramiz», - dedi-yu tez-tez yurib ketdi. Bolalar uning bu so'zlaridan xursand bolib, unga ergashishdi... Ular g'unchalar orasida zavqlanishar ekan, Qays bilan Laylining g'unchadek yuraklari bezovta edi. Qalbini ishq o'ti band etgan go'zal qizning xayoli parishon bolsa, Qays aql-u hushidan ayrilgandek behol bolib, o'rtoqlarining bergan savollarini tushunmas, anglab yetgan chog'da esa nima deb javob berishga ojizlik qilardi. O'z ishqini yashirish uchun intilar ekan, goh ko'zidan tinmay yosh oqizar, goh beixtiyor oh tortar, sevgilisiga boqishni istar ekan, dilidagi o't kuchliroq alanganar, boqishga quvvati, boqmaslikka esa toqati yo'q edi. Ba'zida ko'z qiri bilan boqib qolsa, jonidan o'tli oh chiqardi."

Majnun Layliga bir necha gap aytib, o'zini behol sezib, ishq dardidan hushdan ketadi. Layli esa uni o'ldi deb o'ylab nola qiladi. Ularning ilk uchrashuvi shu edi. Bora-bora Qays bu ishqqa asir bo'lib, telbaga aylanadi va o'ziga "Majnun" nomini oladi.

Asar ikki bandaning bir-biriga muhabbat haqida emas, balki ilohiy ishq to'g'risida. Voqealar rivojida Qays Haj ziyoratiga boradi va Kabani tavof qilar ekan "mendagi bu ishqni ziyoda qil, kam bo'lsa, ko'p qil" deb iltijo qiladi. Bu holatni ko'rgan ziyoratchilar uning ishqiga lol qolishadi, uni telbalikdan qaytarishni to'xtatishadi. Ya'niki bundan ma'no Haj safariga borganlar odatda shukrona aytib, dillari shod bo'lib, "hoji" nomini olib uyga qaytadilar. Majnun esa meni bu ishqda yanada telba qil, ya'ni o'zingga oshiqligimni kam qilma, ziyoda qil yana telba bo'lay deb duolar qiladi. Alloh ishqida devona bo'lishni tilaydi.

Asarda it va qo'y-qo'zilar obrazlariga ham to'xtalib o'tilgan. Qays ularni ko'rganda ahvoli ulardanda yomonligini bildiradi. Chunki bu hayvonlar yori vaslini undan ko'proq ko'rgan, yorga undanda yaqinroq bo'lgan edi. So'ngida devona yigit ostonadan kirdi va uy ichida yotgan sevgilisiga ko'zi tushdi, uning oldiga borib, yoniga yotdi-yu, jon taslim qildi. Uyga kirgan qabila ahli bu holatni ko'rib, hayradan qotib qolishdi. Ularni dafn etish zaruriyati tufayli bu holatda qanday ish tutish haqida maslahatlasha boshladilar. Barchalari dedilarki:

«Bu ikki g'amnok,
 Har shoyibai fasoddin pok,
 Kim umrlarida ishqi qotil,
 Qilmay nafase alarni xushdil.
 Hajr ichra to'yub ramida jondin,
 Armon bila bordilar jahondin.
 Chun ruhlarig'a dur nihoniy,
 Jannatda visoli jovidoniy.
 Netgay qo'shulub iki badan ham,
 Go'r o'lsa alarg'a bir, kafan ham.
 Vasl oldi chu ruhlarg' a hosil,
 Tufroqqa tufroq o'lsa vosil".

Laylining vasiyati ham shunday ekanligi ularga ayon edi. So'ng ikkovlarini - jonsiz kelin-u o'lik kuyovni bir tobutga solishdi. Ikki jism bir kafanga, yo'q, yo'q, ikki ruh bir badanga kirdi. Ikki badan dona qobig'i kabi bir kafanga o'ralgan edi. Shundan so'ng tobutni chiroyli guldor matolar bilan bezatishib, mozorgacha boshlari ustida ko'tarib borishdi, so'ng tobut bilan ikki dilraboni qabr ichiga olib kirib, tuproqqa qo'ydilar-da, qorong'i uydan chiqdilar. Oy bilan kun yuzini bulut yashirdi, go'r bitta edi, shuning uchun bitta qabr yasashdi. Ishq ahliga umid shami o'chdi, chunki oy bilan xurshid yer ichiga kirishdi. Ishq eliga shoh ham qolmadi, husn ko'kida oy ham qolmadi.

Asar nasriy bayoni shu jumlalar bilan yakunlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy "Xamsa" asari. Yangi asr avlodи 2021;
2. Kitobsevar.uz sayti;
3. Kutubxonachi.uz sayti.